Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning intellektual, ma'naviy va psixologik rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalarning sog'lom va uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning individual xususiyatlarini erta aniqlash hamda rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, ushbu davrda bolaning bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy sohasi, ijtimoiy munosabatlari va shaxs sifatidagi shakllanishi jadal sur'atlarda rivojlanadi. Shu sababli bolalarning psixologik rivojlanish darajasini ilmiy asosda baholash va diagnostika qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi PF-152-son<sup>1</sup> "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

1 <https://lex.uz/docs/-7128182>

”gi Farmoni maktabgacha ta’lim sohasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi. Mazkur farmon asosida Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilib, bolalarning sifatli ta’lim va tarbiya olishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son<sup>2</sup> “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish hamda zamonaviy diagnostik usullardan foydalanishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ta’lim sifatini yaxshilash va har bir bolaning qobiliyatlarini erta aniqlashga qaratilgan vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda psixodiagnostika muhim vosita hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi va uni psixodiagnostika qilish masalasi psixologiya fanida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilgan.

L.S. Vygotskiy o‘zining bolalar rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida shunday fikr bildiradi: “Bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u kattalar bilan hamkorlik jarayonida shakllanadi” [1, B. 86]. Ushbu fikrdan ko‘rinadiki, bolaning rivojlanishini baholashda uning atrof-muhit bilan munosabatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixodiagnostika olib borishda faqat individual ko‘rsatkichlar emas, balki bolaning oila va ta’lim muassasasidagi ijtimoiy munosabatlari ham tahlil qilinishi lozim.

R.S. Nemov psixodiagnostika masalasiga to‘xtalib, quyidagicha ta’kidlaydi: “Psixodiagnostika shaxsning psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan maxsus metodlar tizimidir”. Ushbu ta’rif psixodiagnostikaning ilmiy-amaliy mohiyatini ochib beradi. Tadqiqotchining ushbu fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixodiagnostik metodlar yosh va individual xususiyatlarga mos, qiziqarli hamda tabiiy faoliyat asosida tashkil etilishi zarur.

L.I. Bojovich tadqiqotlarida bolalik davrida shaxsning shakllanishi emotsional soha va motivatsiya bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, bolaning ichki ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olmasdan turib, psixologik rivojlanishni to‘liq baholash mumkin emas [3]. Bu yondashuv psixodiagnostika jarayonida bolaning emotsional holatini aniqlash muhimligini tasdiqlaydi.

V.M. Karimova o‘z ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari, nutq va ijtimoiy moslashuvini o‘rganishda kompleks psixodiagnostik yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikrlariga ko‘ra, diagnostika natijalari asosida olib borilgan rivojlantiruvchi va korreksion ishlar bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda R.S. Reymbaeva tomonidan ishlab chiqilgan “Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish diagnostikasi” metodik qo‘llanmasida tavsiya etilgan testlardan foydalanildi. Tadqiqot maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitida, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, individual tarzda o‘tkazildi [5].

Bolalarning idrok va makon tasavvurlarini aniqlash maqsadida “Shakllar qutisi” va “Kesilgan rasmlar” metodikalari qo‘llanildi. Ushbu testlar orqali bolalarning shakl va predmetlarni yaxlit holda idrok etish, ularni solishtirish va qayta tiklash qobiliyatlari baholandi. Testlar o‘yin shaklida o‘tkazilib, bolaga topshiriqlar sodda va tushunarli tarzda izohlandi.

Mayda motorika va tafakkur rivojlanishini aniqlash uchun “Matryoshkalar” metodikasi qo‘llanildi. Ushbu metodika yordamida bolaning hajm tushunchasi, qo‘l harakatlari muvofiqligi va topshiriqni ketma-ket bajarish qobiliyati kuzatildi.

Bolalarning xotira va diqqat jarayonlarini o‘rganishda “Sakkizta predmet”, “O‘xshashini top” hamda “Labirint” metodikalari ishlatildi. Ushbu testlar orqali bolalarning eslab qolish hajmi, diqqatni jamlash, barqarorlik va ko‘rsatmaga amal qilish darajasi aniqlanib, natijalar ball tizimi asosida baholandi.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>



Mantiqiy fikrlash va umumlashtirish qobiliyatini aniqlash uchun “Rasm uchun uychni top” metodikasi qo'llanildi. Ushbu test davomida bolalarning predmetlarni funksional belgilariga ko'ra guruhlash va o'z tanlovini izohlab bera olish ko'nikmalari tahlil qilindi.

Bolalarning tasavvur va ijodiy fikrlash darajasini baholash maqsadida “Bu nimaga o'xshaydi?” metodikasidan foydalanildi. Test jarayonida bolaning moslashuvchan fikrlashi, obrazli tasavvuri va erkin javob bera olish qobiliyatiga e'tibor qaratildi.

Olingan natijalar har bir metodika bo'yicha belgilangan baholash mezonlari asosida tahlil qilinib, bolalarning psixologik rivojlanish darajasi aniqlanib, xulosalar chiqarildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi bilish jarayonlari jadal rivojlanadi. Idrok asosan konkret-obrazli xarakterga ega bo'lib, bolaning atrof-muhitni anglashida muhim rol o'ynaydi. Diqqat esa dastlab ixtiyorsiz bo'lib, asta-sekin ixtiyoriy diqqat shakllana boshlaydi.

Xotira jarayonida obrazli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Tafakkur esa ko'proq amaliy va obrazli xarakterda namoyon bo'ladi. Nutq rivoji bolaning ijtimoiylashuvi va muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Diagnostika natijalariga asoslanib rivojlantiruvchi va korreksion mashg'ulotlar tashkil etiladi. Psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligida olib borilgan ishlar bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotda jami 40 nafar maktabgacha yoshdagi bola ishtirok etdi.

Jins bo'yicha chastotali tahlil. SPSS dasturida o'tkazilgan chastotali tahlil natijalariga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning 15 nafari o'g'il bolalar (37,5 %), 25 nafari qiz bolalar (62,5 %)ni tashkil etdi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, tanlanmada qiz bolalar son jihatdan ustunlik qiladi. Bu holat tadqiqot natijalarini jins omili nuqtayi nazaridan tahlil qilishda e'tiborga olinishi lozim, chunki guruhlar son jihatdan teng emas.

Jinslar bo'yicha jamlanma foiz (cumulative percent) 100 %ni tashkil etib, barcha ishtirokchilar to'liq qamrab olinganligini ko'rsatadi. Ushbu chastotali taqsimot keyingi bosqichlarda jinslar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda parametrik yoki noparametrik mezon tanlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yosh bo'yicha chastotali tahlil. Yosh ko'rsatkichlari bo'yicha chastotali tahlil natijalariga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning 3 nafari 5 yosh (7,5 %), 8 nafari 4 yosh (20,0 %), 18 nafari 5 yosh (45,0 %) va 11 nafari 6 yosh (27,5 %)ni tashkil etdi. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, tadqiqotda asosan 5–6 yoshli bolalar ustunlik qiladi, bu esa tadqiqot mavzusining aynan maktabgacha katta yosh bosqichiga mos ekanligini tasdiqlaydi.

Jamlanma foiz ko'rsatkichlariga ko'ra, ishtirokchilarning 72,5 %i 5 yoshgacha bo'lgan, qolgan 27,5 %i 6 yoshli bolalardan iborat.

Umuman olganda, chastotali tahlil natijalari tanlanmaning tarkibi jins va yosh jihatidan tahlil qilinganligini, ma'lumotlarning asosiy qismi valid ekanligini hamda keyingi statistik mezonlarni tanlash uchun yetarli asos mavjudligini ko'rsatdi.

Kolmogorov–Smirnov testi bo'yicha tahlil. Tadqiqotda qo'llanilgan psixodiagnostik testlar natijalarining taqsimot xususiyatlarini aniqlash maqsadida bir namunali Kolmogorov–Smirnov normallik testi o'tkazildi. Ushbu test yordamida ma'lumotlarning normal taqsimotga mos yoki mos emasligi tekshirildi, bu esa keyingi statistik mezonlarni tanlash uchun muhim asos hisoblanadi.

SPSS dasturida o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, “Shakllar qutisi”, “Matrushkalar”, “Kesilgan rasmlar”, “Sakkizta predmet”, “Labirint”, “O'xshashini top”, “Rasm uchun uychni top” hamda “Bu nimaga o'xshaydi” testlari bo'yicha barcha o'zgaruvchilarda Kolmogorov–Smirnov Z statistikasi yuqori qiymatlarni ko'rsatdi ( $Z = 0.382$  dan  $0.500$  gacha).

Barcha testlar bo'yicha asimptotik ahamiyatlilik darajasi  $p = 0.000$  ( $p \leq 0.001$ )ga teng bo'lib, bu natijalar statistik jihatdan ishonchli hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar nol gipotezaning rad etilishini, ya'ni tanlanma ma'lumotlarining normal taqsimotga mos kelmasligini anglatadi.

Normallik testida aniqlangan eng katta ijobiy va salbiy farqlar qiymatlari ham taqsimotning simmetrik emasligini va normal egri chiziqdan sezilarli og'ishlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat barcha o'zgaruvchilar bo'yicha bir xil yo'sinda kuzatildi.

Shunday qilib, Kolmogorov–Smirnov testi natijalari asosida tadqiqotda olingan barcha test ko'rsatkichlari normal taqsimlanmagan degan xulosaga kelindi. Shu sababli, keyingi bosqichlarda:

- guruhlararo farqlarni aniqlashda noparametrik mezonlar (Mann–Uitni U, Kruskal–Uollis H);
- o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda esa Spirmen rang korrelyatsiyasi;
- qo'llanilishi metodologik jihatdan to'g'ri deb topildi.

Jins bo'yicha farqlarni aniqlash (Mann–Whitney U testi). Kolmogorov–Smirnov testi natijalariga ko'ra, barcha psixodiagnostik ko'rsatkichlar normal taqsimlanmaganligi sababli, jinslar o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun noparametrik Mann–Whitney U testi qo'llanildi. Tadqiqotda 15 nafar o'g'il bola va 25 nafar qiz bola ishtirok etdi.

Ranks (o'rtacha reytinglar) tahlili. Reytinglar tahliliga ko'ra, barcha testlar bo'yicha o'g'il bolalarning o'rtacha reytinglari qiz bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanini kuzatildi. Jumladan, "Shakllar qutisi" testida o'g'il bolalarning o'rtacha reytingi 21,00, qiz bolalarda esa 20,20 ni tashkil etdi. Shunga o'xshash holat "Matrushkalar" (21,30 va 20,02), "Kesilgan rasmlar" (22,60 va 19,24), "Sakkizta predmet" (22,07 va 19,56) hamda "Labirint" (22,93 va 19,04) testlarida ham qayd etildi.

"O'xshashini top", "Rasm uchun uychani top" va "Bu nimaga o'xshaydi" metodikalarida ham o'g'il bolalarning o'rtacha reytinglari yuqori bo'lsa-da, bu ustunlik statistik jihatdan baholanishi Mann–Whitney U testi orqali amalga oshirildi.

Mann–Whitney U testi natijalariga ko'ra, barcha testlar bo'yicha asimptotik ahamiyatlilik darajasi  $p \leq 0.05$  ekanligi aniqlandi. Xususan, "Shakllar qutisi" ( $U = 180, p = 0.750$ ), "Matrushkalar" ( $U = 175.5, p = 0.657$ ), "Kesilgan rasmlar" ( $U = 156, p = 0.261$ ), "Sakkizta predmet" ( $U = 164, p = 0.400$ ), "Labirint" ( $U = 151, p = 0.192$ ), "O'xshashini top" ( $U = 156.5, p = 0.251$ ), "Rasm uchun uychani top" ( $U = 174, p = 0.587$ ) hamda "Bu nimaga o'xshaydi" ( $U = 162, p = 0.347$ ) testlarida jinslar o'rtasida ishonchli farqlar aniqlanmadi.

Z-statistikalar qiymatlarining pastligi ham ( $Z = -0.318$  dan  $-1.305$  gacha) kuzatilgan farqlar tasodifiy ekanligini ko'rsatadi.

Korrelyatsion tahlil (Pirson mezonida). Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash maqsadida Pirson korrelyatsiya tahlili o'tkazildi. Korrelyatsion tahlil bolaning yoshi, jinsi hamda qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalar natijalari o'rtasidagi munosabatlarni baholashga qaratildi.

Yoshi va jinsi bilan psixodiagnostik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik. Pirson korrelyatsiya tahlili natijalariga ko'ra, bolalarning yoshi bilan barcha psixodiagnostik metodikalar natijalari o'rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik aniqlangan ( $r = 0.492$  dan  $0.616$  gacha,  $p \leq 0.01$ ). Jumladan, yosh ko'rsatkichi "Kesilgan rasmlar" ( $r = 0.616$ ), "Bu nimaga o'xshaydi" ( $r = 0.599$ ), "Labirint" ( $r = 0.581$ ) va "Rasm uchun uychani top" ( $r = 0.572$ ) metodikalari bilan nisbatan kuchli bog'liqlikni namoyon etdi. Bu holat yosh ortib borishi bilan bolalarning idrok, tafakkur, xotira va tasavvur jarayonlari jadal rivojlanishini ko'rsatadi.

Jins ko'rsatkichi bilan psixodiagnostik metodikalar natijalari o'rtasida esa salbiy, ammo statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmagan bog'liqlik kuzatildi ( $r = -0.051$  dan  $-0.215$  gacha,  $p \leq 0.05$ ). Ushbu natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari jins omiliga sezilarli darajada bog'liq emasligini tasdiqlaydi.

Metodikalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Psixodiagnostik metodikalar o'rtasidagi korrelyatsion tahlil natijalari barcha testlar o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi ( $r = 0.694$  dan  $0.952$  gacha,  $p \leq 0.01$ ).

Xususan, "Shakllar qutisi" metodikasi boshqa metodikalar bilan kuchli bog'liqlikni namoyon etdi: "Rasm uchun uychani top" ( $r = 0.929$ ), "Bu nimaga o'xshaydi" ( $r = 0.846$ ), "Matrushkalar" ( $r = 0.821$ ). "Matrushkalar" metodikasi ham barcha qolgan metodikalar bilan yuqori darajada bog'langan bo'lib, ayniqsa "Bu nimaga o'xshaydi" ( $r = 0.899$ ) va "O'xshashini top" ( $r = 0.890$ ) metodikalari bilan kuchli munosabat kuzatildi.

"Labirint" va "O'xshashini top" metodikalari o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik aniqlanib ( $r = 0.952$ ), bu metodikalar bolaning mantiqiy fikrlashi va diqqat jarayonlarini baholashda o'zaro yaqin psixologik mexanizmlarga tayanishini ko'rsatadi. Shuningdek, "Bu nimaga o'xshaydi" metodikasi barcha testlar bilan barqaror va yuqori korrelyatsion bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi (1-jadval).

**1-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh va jins o'rtasidagi bog'liqlik (Pirson mezonida asosida)**

	Shakllar qutisi	Matrushkalar	Kesilgan rasmlar	Sakkizta predmet	Labirint	O'xshashini top	Rasm uchun uychani top	Bu nimaga o'xshaydi
<b>Yoshi</b>	0.564**	0.565**	0.616**	0.492**	0.581**	0.505**	0.572**	0.599**
<b>Jinsi</b>	-0.051	-0.081	-0.187	-0.144	-0.215	-0.189	-0.092	-0.158

**2-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Shakllar qutisi" metodikasi va boshqa metodikalar o'rtasidagi bog'liqlik (Pirson mezonida asosida)**

	Matrushkalar	Kesilgan rasmlar	Sakkizta predmet	Labirint	O'xshashini top	Rasm uchun uychani top	Bu nimaga o'xshaydi
<b>Shakllar qutisi</b>	0.821**	0.694**	0.769**	0.791**	0.821**	0.929**	0.846**


**3-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Matrushkalar” metodikasi va boshqa metodikalar o’rtasidagi bog’liqlik (Pirson mezonini asosida)**

	Shakillar qutisi	Kesilgan rasmlar	Sakkizta predmet	Labirint	O’xshashini top	Rasm uchun uychani top	Bu nimaga o’xshaydi
<b>Matrushkalar</b>	0.821**	0.863**	0.843**	0.849**	0.890**	0.883**	0.899**

**4-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Kesilgan rasmlar” metodikasi va boshqa metodikalar o’rtasidagi bog’liqlik (Pirson mezonini asosida)**

	Shakillar qutisi	Matrushkalar	Sakkizta predmet	Labirint	O’xshashini top	Rasm uchun uychani top	Bu nimaga o’xshaydi
<b>Kesilgan rasmlar</b>	0.694**	0.863**	0.826**	0.816**	0.762**	0.749**	0.855**

**5-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Sakkizta predmet” metodikasi va boshqa metodikalar o’rtasidagi bog’liqlik (Pirson mezonini asosida)**

	Shakillar qutisi	Matrushkalar	Kesilgan rasmlar	Labirint	O’xshashini top	Rasm uchun uychani top	Bu nimaga o’xshaydi
<b>Sakkizta predmet</b>	0.769**	0.843**	0.826**	0.807**	0.843**	0.834**	0.857**

**6-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Labirint” metodikasi va boshqa metodikalar o’rtasidagi bog’liqlik (Pirson mezonini asosida)**

	Shakillar qutisi	Matrushkalar	Kesilgan rasmlar	Sakkizta predmet	O’xshashini top	Rasm uchun uychani top	Bu nimaga o’xshaydi
<b>Labirint</b>	0.791**	0.849**	0.816**	0.807**	0.952**	0.845**	0.852**

**7-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda “O’xshashini top” metodikasi va boshqa metodikalar o’rtasidagi bog’liqlik (Pirson mezonini asosida)**

	Shakillar qutisi	Matrushkalar	Kesilgan rasmlar	Sakkizta predmet	Labirint	Rasm uchun uychani top	Bu nimaga o’xshaydi
<b>O’xshashini top</b>	0.821**	0.890**	0.762**	0.843**	0.952**	0.883**	0.899**

**8-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Rasm uchun uychani top” metodikasi va boshqa metodikalar o’rtasidagi bog’liqlik (Pirson mezonini asosida)**

	Shakillar qutisi	Matrushkalar	Kesilgan rasmlar	Sakkizta predmet	Labirint	O’xshashini top	Bu nimaga o’xshaydi
<b>Rasm uchun uychani top</b>	0.929**	0.883**	0.749**	0.834**	0.845**	0.883**	0.896**

**9-jadval: Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Bu nimaga o’xshaydi” metodikasi va boshqa metodikalar o’rtasidagi bog’liqlik (Pirson mezonini asosida)**

	Shakillar qutisi	Matrushkalar	Kesilgan rasmlar	Sakkizta predmet	Labirint	O’xshashini top	Rasm uchun uychani top
<b>Bu nimaga o’xshaydi</b>	0.846**	0.899**	0.855**	0.857**	0.852**	0.899**	0.896**

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish ko’rsatkichlari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni baholashga qaratildi.

Spirman korrelyatsiya tahlili shuni ko’rsatdiki, bolaning yoshi barcha psixodiagnostik testlar bilan sezilarli ijobiy bog’liq ( $r = 0.492-0.616$ ,  $p \leq 0.01$ ). Bu shuni anglatadiki, yosh ortishi bilan bolaning idrok, tafakkur, xotira va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Biroq, jins ko’rsatkichi bilan psixologik ko’rsatkichlar o’rtasida salbiy, ammo statistik jihatdan ahamiyatli bo’lmagan bog’liqlik kuzatildi ( $r = -0.051 - -0.215$ ,  $p \leq 0.05$ ), ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish ko’rsatkichlari jinsdan qattiq farq qilmaydi.

Spirman tahlili natijalari metodikalar o’rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiyani ko’rsatdi ( $r = 0.694-0.952$ ,  $p \leq 0.01$ ). Masalan, “Labirint” va “O’xshashini top” metodikalari o’rtasidagi korrelyatsiya  $r = 0.952$  bo’lib, bu metodikalar bolaning mantiqiy fikrlash va diqqat jarayonlarini baholashda o’zaro uyg’unligini ko’rsatadi.

Shuningdek, barcha metodikalar bilan “Rasm uchun uychani top” va “Bu nimaga o’xshaydi” testlari ham yuqori korrelyatsiyani namoyon qildi, bu metodikalar psixologik rivojlanishni kompleks baholashda bir-birini to’ldiruvchi vositalar ekanligini ko’rsatadi.

Normallik testi natijalari (Kolmogorov–Smirnov testi,  $p \leq 0.001$ ) shuni ko'rsatdiki, ma'lumotlar normal taqsimlanmagan. Shu sababli Spirmen korrelyatsiya tahlili ham o'tkazildi. Spirmen tahlili Pirson bilan mos natijalarni berdi:

1. Yosh bilan barcha testlar o'rtasida ijobiy va sezilarli bog'liqlik saqlanib qoldi.
2. Jins bilan bog'liqlik esa ahamiyatsiz bo'lib, jins omilining maktabgacha yoshdagi psixologik rivojlanishga sezilarli ta'siri yo'qligi tasdiqlandi.
3. Testlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yuqori darajada saqlanib, metodikalar o'rtasidagi uyg'unlikni ko'rsatdi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari yoshga bog'liq bo'lib, yosh ortishi bilan idrok va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.
2. Jins omili maktabgacha yoshdagi psixologik rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.
3. Metodikalar o'rtasidagi yuqori korrelyatsiyalar testlar bir-birini to'ldiruvchi va bir xil psixologik jarayonlarni baholashda ishonchli ekanligini ko'rsatadi.
4. Natijalar psixologik rivojlanishni kompleks baholash uchun qo'llaniladigan metodikalar uyg'un va bir-birini tasdiqlovchi vositalar ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik rivojlanishni baholashda yosh omili eng muhim determinant hisoblanadi, metodikalar esa bir-birini to'ldiruvchi va ishonchli vositalardir.

Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari yosh omili bilan chambarchas bog'liq, biroq jins omiliga sezilarli darajada bog'liq emas. Metodikalar o'rtasidagi yuqori korrelyatsiyalar esa qo'llanilgan testlarning o'zaro uyg'unligini va ular bolaning psixologik rivojlanishini kompleks baholash imkonini berishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalarga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning idrok, tafakkur, xotira, diqqat va tasavvur ko'rsatkichlari bo'yicha jins omili asosida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Garchi o'g'il bolalarda ko'rsatkichlar o'rtacha reytinglar bo'yicha nisbatan yuqoriroq bo'lsa-da, ushbu farqlar ishonchli darajada emas. Bu holat maktabgacha yosh davrida psixologik rivojlanish ko'rsatkichlari asosan jinsga emas, balki individual va yosh xususiyatlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini psixodiagnostika qilish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixodiagnostik tadqiqotlar bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlanishdagi muammolarni erta aniqlash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Москва, 2005.
2. Немов Р.С. Психология. – Москва, 2010.
3. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Москва, 2008.
4. Karimova V.M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2016.
5. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi bo'yicha metodik qo'llanmalar. – 2018.
6. Razakova Rayxan Saylaubekovna. (2025). Keksalik davridagi yolg'izlik hissini kamaytirish uchun amaliy tavsiyalar. "XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 3(2), 32–34. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14852345>
7. Razakova Rayxan. (2025). Keksalarning ruhiy va emotsional salomatligini yaxshilashga qaratilgan takliflar. Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World, 2(2), 64–67. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14848049>
8. Razakova Rayxan, & Ro'zmetova Mahbuba. (2025). Gerontologiyada psixologik xizmatdan foydalanishning nazariy va metodologik asoslari. Conference of Natural and Applied Sciences in Scientific Innovative Research, 2(4), 50–53. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15242570>
9. Razakova Rayxan. (2025). Keksalarning ruhiy va emotsional salomatligini yaxshilashga qaratilgan takliflar. Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World, 2(2), 64–67. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14848049>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.